

**XALQARO INDEXLARDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON HUKUMAT
TIZIMINING TUTGAN O'RNI****Qurbonov Shoxrux Quvondiqovich****TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI****DAVLAT BOSHQARUVI HUQUQI YO'NALISHI MAGISTRANTI****shoxruxsul06@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15699140>****ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada xalqaro indexlarda O'zbekistonda elektron hukumat tizimining tutgan o'rni haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. O'zbekiston elektron hukumat tizimining boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda baholanishi haqida fikrlar keltirilgan. Ushbu tashkilotlarning baholash mezonlari orasida davlat xizmatlarining raqamlashtirish darajasi, fuqarolar va biznes subyektlari uchun elektron xizmatlarning mavjudligi va sifati, ma'muriy jarayonlarning shaffofligi, ma'lumotlarning ochiq va erkin olinish imkoniyatlari, kiberxavfsizlik darajasi va raqamli savodxonlik ko'rsatkichlari haqida asoslab berilgan.

KALIT SO'ZLAR

Elektron hukumat, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, raqamli savodxonlik, IKT.

Zamonaviy dunyoda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va fuqarolar bilan muloqotni takomillashtirish maqsadida elektron hukumat tizimlarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron hukumat konsepsiyasi davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish va shaffoflikni ta'minlash orqali boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan strategik yondashuvdir. O'zbekiston Respublikasi ham bu global tendensiyalar doirasida o'z elektron hukumat tizimini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirmoqda. Mamlakatda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar davri elektron hukumat sohasida ham muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, "yagona darcha" prinsipini joriy etish, elektron hujjat aylanishini tashkil etish va fuqarolar uchun qulay elektron platformalar yaratish kabi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan choralar mamlakat elektron hukumat rivojlanish darajasining xalqaro reytinglarda aks etishiga olib keldi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan baholash jarayonlari O'zbekiston elektron hukumat tizimining rivojlanish sur'atlarini va erishilgan yutuqlarni obyektiv ko'rsatib bermoqda.

O'zbekiston elektron hukumat tizimini bir nechta nufuzli xalqaro tashkilotlar muntazam ravishda baholaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksi orqali mamlakatlarning raqamli boshqaruv tizimlarini baholaydi. Bu indeks onlayn xizmatlar subindeksi, telekommunikatsiya infratuzilmasi subindeksi va inson kapitali subindeksidan tashkil topadi. Jahon Banki o'zining "Raqamli hukumat barometr" loyihasi doirasida mamlakatlarning raqamli transformatsiya jarayonlarini baholaydi va raqamli identifikatsiya, raqamli to'lovlar hamda raqamli platformalar kabi yo'nalishlarda tahlillar olib boradi. Jahon Iqtisodiy Forumi o'zining "Global Raqobatbardoshlik Hisoboti"da raqamli infratuzilma va texnologiyalardan foydalanish darajasini baholaydi. Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) mamlakatlarning IKT rivojlanish indeksini tayyorlaydi va bu indeks elektron hukumat rivojlanishining muhim komponentlarini o'z ichiga oladi. OECD

tashkiloti ham o'zining "Raqamli hukumat ko'rsatkichlari" orqali a'zo bo'lmagan mamlakatlar, jumladan O'zbekistonni ham baholaydi. Ushbu tashkilotlarning baholash mezonlari orasida davlat xizmatlarining raqamlashtirish darajasi, fuqarolar va biznes subyektlari uchun elektron xizmatlarning mavjudligi va sifati, ma'muriy jarayonlarning shaffofligi, ma'lumotlarning ochiq va erkin olinishi imkoniyatlari, kiberxavfsizlik darajasi va raqamli savodxonlik ko'rsatkichlari mavjud.

O'zbekistonning davlat xizmatlarini raqamlashtirish sohasidagi yutuqlari bir qator xalqaro reytinglarda ijobiy o'zgarishlar shaklida o'z aksini topgan. "my.gov.uz" yagona davlat xizmatlar portali orqali 400 dan ortiq elektron xizmat ko'rsatilayotgani BMT Elektron Hukumat Indeksida mamlakatning onlayn xizmatlar bo'yicha reytingini sezilarli darajada yaxshilashga olib keldi.

BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index) mamlakatlarning elektron hukumatni qurish va raqamlashtirishdagi yutuq va kamchiliklarini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgu sanaladi. Yangi e'lon qilingan reytingda (UN E-Government Survey 2022) an'anaviy yetakchilar deyarli o'zgarmadi: Daniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya bosh uchlikda. Ahamiyatli jihati, har ikki yilda yangila-nadigan ushbu reytingda O'zbekiston bir yo'la 18 pog'ona yuqorilab, jahon mamlakatlari orasida 69-o'rinni egalladi. Bu mamlakatning elektron hukumatni qurish tarixidagi shu paytgacha e'tirof etilgan eng yaxshi natijasi. Solishtirish uchun: 2012 yilda mamlakat 91-o'rinda (indeks 0,5099), 2014 yilda 100-o'rin da (0,4695), 2016 yilda 80-o'rinda (0,5434), 2018 yilda 81-o'rinda (0,6207), 2020 yilda 87-o'rinda (0,6665) bo'lgan. Shunisi e'tiborga molikki, o'tgan yillar davomida, garchi O'zbekistonning elektron hukumatni rivojlantirish indeksi tinmay o'sib, ya'ni yaxshilanib borsa-da, reytingdagi o'rni pasayishda davom etgan. Bu bizdan o'zib ketgan mamlakatlar-da o'sish sur'ati nisbatan yuqoriroqligi bilan izohlanadi. 2022-yilgi reytingda mamlakatimiz "katta sakrash"dan tashqari, indeks ko'rsatkichla rini ham yaxshilab olganiga guvoh bo'lamiz¹. Ma'lumot uchun: BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi uch asosiy ustunga qu rilgan: OSI (Online Service Index)- Onlayn xizmat larni rivojlantirish indeksi; Til (Telecommunications Infrastructure index) Telekommunikasiya infratuzilmasi indeksi, HCI (Human Capital Index) Inson kapitali indeksi. O'zbekistonning 2022 yildagi subindekslari quyidagicha. Onlayn xizmatlarni rivojlantirish 0,7440 Inson kapitali 0,7778: Telekommunikasiya infratuzilmasi 0,6575. Shuningdek, O'zbekiston Jahon bankining "GovTech" reytingida hukumat va davlat xizmat lari sektori bo'yicha 37 pog'onaga (198 mamlakat ichida 43-o'rin), raqamli ko'nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovasiyalar bo'yicha esa 65 pogo-na yuqoriladi (4-o'rinni egalladi). "Open data Inception"ning 2022 yilgi tahliliga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 201 ta mamlakatlari orasida ochiq ma'lumotlar manbalari va ular soni bo'yicha 4-o'ringa chiqdi (124 ta ochiq ma'lu motlar manbalari bilan). My.gov.uz Yagona interaktiv davlat xizmat lari portali Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo aholisining 60 foizdan ko'prog'i internet Boshqa mamlakatpar qatori O'zbekistonda ham raqamli texnologiyalar va elektron hukumatni rivojlantirish, bu orqali fuqarolarga qo'shimcha. qulayliklar yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ochiqlik va shaffoflik asosida xalqni siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruviga jalb etish, shuningdek, aholiga davlat xizmatla rini taqdim etish ko'lami o'sib bormokda. Jumladan, 2022

¹ UN E-Government Survey, report New York, 2022

yilda Yagona interaktiv dav pat xizmatlari portalida (YaIDXP, my.gov.uz) 70 dan ziyod yangi xizmatlar ishga tushirilib, hozirgi kunda ular soni 400 tadan oshirildi (2021 yil da 305 ta edi). Bu xizmatlardan o'tgan yili 12 mln aholi foydalandi (2021 yilda 9 mln bo'lgan) Shulardan 240 ta xizmatdan bepul foydalanish imkoniyati mavjud. Pulli xizmatlardan my.gov.uz orqali foydalanilganda 10 foiz chegirma belgilangan. YaIDXP foydalanuvchilari soni 2022 yil av valiga nisbatan 2,9 baravar, ya'ni qariyb 3 mlnga ortib, 4 mlndan oshdi (2021 yilda 1,1 mln). Foydalanuvchilar gender statistikasida erkaklar - 57.93 foizni, ayollar 42,07 foizni tashkil etgan. Yosh bo'yicha eng ko'p foydalanuvchilar 25-34 yoshlarga to'g'ri keladi (33,4%). My.gov.uz ning mobil ilovasida ham o'tgan yil da 50 turdagi yangi onlayn xizmatlar joriy qilinib, umumiy son 165 taga yetkazildi. 38 turdagi xizmatlardan foydalanishda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talabi bekor qilindi. YaIDXP xizmatlaridan onlayn foydalanish ortidan birgina 2022 yilda aholining 36 mlrd so'mdan ortiq mablag'i iqtisod qilinishiga erishildi.

2024-yilda O'zbekiston elektron hukumat va raqamli infratuzilma yo'nalishida sezilarli natijalarga erishdi. Xalqaro reytinglar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimiz bu borada barqaror rivojlanib bormoqda.

Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi – 0.79990 ball bilan O'zbekiston dunyoda 63-o'rinni egallagan². Bu ko'rsatkich davlat xizmatlarining raqamlashtirilayotgani va fuqarolar uchun qulayliklar yaratilayotganini bildiradi.

Elektron ishtirok indeksi – 0.6986 ball bilan dunyoda 53-o'rin³. Bu shuni anglatadiki, fuqarolar davlat boshqaruvida, ayniqsa onlayn platformalarda faolroq ishtirok etmoqda. Ya'ni, jamoatchilik fikrini inobatga olish darajasi oshib bormoqda.

Onlayn xizmatlar indeksi – 0.7648 ball, 63-o'rin⁴. Davlat xizmatlarining Internet orqali taqdim etilishi tobora rivojlanmoqda. Bu esa odamlarning qog'ozbozlikdan holi, tezkor va ochiq xizmatlardan foydalanishiga imkon beradi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi – 0.8769 ball⁵. Bu juda yuqori ko'rsatkich sanaladi. Demak, mamlakatimizda Internet va raqamli aloqa infratuzilmasi jahon standartlariga yaqinlashib bormoqda.

Inson kapitali indeksi – 0.7580 ball⁶. Bu esa ta'lim, sog'liqni saqlash va umuman, aholining bilim va salohiyat darajasi tobora yuksalayotganidan darak beradi. O'zbekiston bugungi kunda raqamli transformatsiya yo'lida izchil qadamlar qo'ymoqda. Yuqoridagi indekslar mamlakatda elektron xizmatlar, infratuzilma va inson salohiyatiga jiddiy e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Agar shu sur'atda davom etilsa, yaqin yillarda O'zbekiston bu yo'nalishlarda yanada yuqori pog'onalarga ko'tarilishi mumkin.

² UN E-Government Knowledgebase, 2024 manba: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>

³ UN E-Government Knowledgebase, 2024 manba: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>

⁴ UN E-Government Knowledgebase, 2024 manba: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>

⁵ UN E-Government Knowledgebase, 2024 manba: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>

⁶ UN E-Government Knowledgebase, 2024 manba: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>

2024-yilgi Hukumat AIga tayyorlik indeksida⁷ O'zbekiston 53,45 ball to'plagan holda 188 davlat orasida 70-o'rinni egalladi. Bu natija uni Markaziy Osiyodagi eng yuqori reytingdagi davlatga aylantiradi. Kengroq Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston Hindiston va Turkiyadan keyin uchinchi o'rinda turadi⁸. O'zbekistonning 2024-yildagi mavqei o'tgan yillarga nisbatan sezilarli yaxshilanishdir. 2020-yilda mamlakat 37,17 ball bilan dunyoda 95-o'rinni egalladi. 2023-yilda u 43,79 ball bilan 87-o'ringa ko'tarildi. Shunday qilib, 2020-yildan buyon O'zbekiston 25 pog'onaga, 2023-yildan 2024-yilgacha esa 17 pog'onaga ko'tarildi. Ushbu izchil yuksalish sur'ati va bir yil ichida 17 pozitsiyaga sezilarli sakrash so'nggi siyosat tashabbuslari va hukumatning sun'iy intellektga yo'naltirilgan sarmoyalari aniq va o'lchanadigan natijalar berayotganidan dalolat beradi. Bu O'zbekiston sun'iy intellektning global tendensiyalariga shunchaki munosabatda bo'lmay, balki o'zining raqamli kelajagini faol shakllantirayotganini, o'zini global sun'iy intellekt landshaftida dinamik o'yinchi sifatida ko'rsatayotganini ko'rsatadigan samarali amalga oshirish va strategik bashoratga ishora qiladi.⁹

2024-yilgi "SI hukumatga tayyorlik indeksi" bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida O'zbekiston eng yuqori o'rinni – 70-pog'onani egallagan. Bu O'zbekistonning sun'iy intellekt sohasidagi davlat siyosatiga tayyorligi va raqamli infratuzilmasi nisbatan rivojlanganini ko'rsatadi. Undan keyingi o'rinda Qozog'iston (76-o'rin) turibdi, bu ham mintaqada raqobatbardosh SI siyosat yuritayotgan davlat ekanini anglatadi. Tojikiston (131-o'rin), Qirg'iziston (134-o'rin) va ayniqsa Turkmaniston (153-o'rin) esa bu borada sezilarli orqada qolmoqda. Bu farqlar hukumatlar tomonidan SIni rivojlantirishga berilayotgan e'tibor, infratuzilma va kadrlar salohiyatidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Mintaqaviy kontekstda O'zbekiston yetakchi pozitsiyani egallagan bo'lsa-da, global raqobatda hali ko'p ishlar qilish kerak. Shu reyting O'zbekiston uchun SI sohasida yanada faol siyosat yuritish, qonunchilik va texnologik rivojlanishni chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi¹⁰.

Jahon bankining GovTech Yetuklik Indeksi (GTMI) davlat boshqaruvini raqamli o'zgartirishning asosiy jihatlarini to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha baholaydi: asosiy davlat tizimlarini qo'llab-quvvatlash, xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash, fuqarolarni jalb qilish va GovTech uchun qulay muhitni rivojlantirish. Indeksda ichki va tashqi ko'rsatkichlar, jumladan, BMTning elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (EGDI) va ITU Global kiberxavfsizlik indeksi (GCI) komponentlaridan foydalaniladi. 2022-yilda O'zbekiston GTMI hisobotida GovTech yetakchilari (A guruhi) qatoridan joy oldi. Bu shuni anglatadiki, mamlakat GovTech tashabbuslariga jiddiy e'tibor qaratayotgan va davlat boshqaruvini raqamli o'zgartirishda yuqori darajadagi etuklikni namoyish etayotgan davlatlar qatoriga kiradi¹¹.

Ookla Global Speedtest Index millionlab foydalanuvchilar testlari asosida har oy butun dunyo bo'ylab internet tezligi ma'lumotlarini taqqoslaydi. U aniq mahalliy o'lchovlarni ta'minlash uchun keng server infratuzilmasidan foydalangan holda ma'lum bir joy uchun odatiy internet ishlashini ko'rsatish uchun individual tajribalarni jamlaydi. Ookla Speedtest global indeksi 2025-yilgi mobil internet tezligi bo'yicha 72-o'rinda, keng polosali tarmoqda esa 76-

⁷ Artificial Intelligence Index Report, 2024

⁸ <https://infocom.uz/en/news/ozbekiston-global-suniy-intellektga-tayyorgarlik-indeksida-17-pogona-yuqoriladi>

⁹ Government AI Readiness Index 2024

¹⁰ Artificial Intelligence Index Report, 2024

¹¹ GovTech Maturity Index (GTMI), 2022 manba: <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/gtmi-Intro>

o'rinni egallagan¹². O'zbekiston internet tezligi bo'yicha ajoyib natijalarga erishdi. Mobil internetni yuklab olish tezligi 2020-yil mayidagi 11,20 Mbit/s dan 2025-yilning aprelida 112,51 Mbit/s gacha ko'tarildi. Ruksat etilgan keng polosali ulanish tezligi ham xuddi shu davrda 26,48 Mbit/s dan 166,45 Mbit/s gacha sezilarli darajada oshdi. Bu o'sish tendensiyasi global reytinglarda o'z aksini topdi: mobil internet 2020-yildagi 133-o'ringa 2025-yilda 62-o'ringa ko'tarildi. Internetning umumiy kirib borishi barqaror o'sib bordi va 2023 yilga kelib aholining 89 foizini tashkil etadi. 2023 yilda maishiy internetning kirib borishi 96,2 foizga yetdi. 2022 yildan beri mobil keng polosali ulanish 100% dan oshdi.

AKTni rivojlantirish indeksida esa 2023-yil 75-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024-yilda shu ko'rsatkich saqlab qolingan.¹³

The Economist Intelligence Unit tomonidan har yili ishlab chiqariladigan va Facebook tomonidan buyurtma qilingan Inklyuziv Internet Index mamlakatlarni to'rtta asosiy toifa bo'yicha saralaydi. 2020-yilgi Inklyuziv Internet Indexda O'zbekiston umumiy 59,50 ball bilan 100 mamlakat ichida 69-o'rinni egalladi¹⁴.

O'zbekiston 2023-yilda 134 ta iqtisod orasida 82-o'ringa ko'tarilib, Tarmoqqa tayyorgarlik indeksi reytingida barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. 2024 yilda 133 ta iqtisod orasida 81-o'ringa ko'tarildi. Uning balli ham 2023-yildagi 43,94 dan 2024-yilda 44,87 gacha ko'tarildi. Bu umumiy raqamli rivojlanish va tayyorlikning barqaror, kamtarona bo'lsa-da yaxshilanishini ko'rsatadi¹⁵.

O'zbekistonda elektron hukumat rivojlanishining xalqaro reytinglardagi o'rni va tahliliy ko'rsatkichlarini o'rganish natijasida mamlakat raqamli transformatsiya sohasida erishgan muhim yutuqlari yaqqol namoyon bo'ldi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksida O'zbekistonning 87-o'ringa 69-o'ringacha ko'tarilishi va boshqa xalqaro reytinglardagi ijobiy dinamika mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli raqamlashtirish siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi. "my.gov.uz" davlat xizmatlar portali orqali 400 dan ortiq elektron xizmat ko'rsatilishi, mobil ilovalar orqali davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi va 15 milliondan ortiq foydalanuvchining platformaga ro'yxatdan o'tishi mamlakatning raqamli boshqaruv tizimidagi yuqori sur'atli o'sishni ko'rsatadi. Elektron hukumat tizimining shaffoflik va ochiqlik ko'rsatkichlari bo'yicha erishilgan natijalar, ayniqsa Transparency International reytingida 45 pozitsiyalik yaxshilanish, davlat boshqaruvida axborot ochiqligini ta'minlash yo'lidagi muvaffaqiyatli qadamlarni aks ettiradi. Raqamli imzo va elektron hujjat aylanishi tizimining joriy etilishi, 500 mingdan ortiq raqamli imzo sertifikatining berilishi va davlat organlarida hujjat aylanishining 90% gacha elektron formatda amalga oshirilishi zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan dalolat beradi. Tadqiqot davomida aniqlangan ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo'lib, telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish,

¹² Speedtest Global Index, 2025 manba: <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan>

¹³ ICT Development Index, by Country 2025 manba: <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/ict-development-index-by-country>

¹⁴ Inclusive Internet Index, 2020 manba: <https://composite-indicators.jrc.ec.europa.eu/explorer/indices/3i-index/inclusive-internet-index>

¹⁵ The Network Readiness Index (NRI), 2023 manba: <https://download.networkreadinessindex.org/reports/countries/2023/uzbekistan.pdf>

ba'zi kategoriadagi ma'lumotlarning ochiqqligini oshirish, turli tizimlar o'rtasidagi integratsiyani takomillashtirish va kiberxavfsizlik choralari mustahkamlash zaruriyati mavjudligi aniqlandi.

2020-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning turli xalqaro indekslar bo'yicha ko'rsatkichlari tahlili deyarli barcha ko'rsatkichlar, jumladan, GovTech, ochiq ma'lumotlar, elektron hukumat, sun'iy intellektga tayyorlik, internet tezligi va penetratsiya bo'yicha yaxshilanishning izchil va aniq tendensiyasini ko'rsatadi. Bu salmoqli muvaffaqiyat ko'p jihatdan kuchli siyosiy iroda va hukumatning strategik tashabbuslari, xususan, "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi tufaylidir. Strategiya AI strategiyalarini rasmiylashtirdi, IT-parklarga sarmoya kiritdi va telekommunikatsiya infratuzilmasini yangiladi. Natijada O'zbekiston Markaziy Osiyoda bir qancha raqamli sohalar, jumladan sun'iy intellektga tayyorlik va ochiq ma'lumotlar bo'yicha yaqqol yetakchiga aylandi. Kelajakda O'zbekiston elektron hukumat tizimining rivojlanishi uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, blokchejn tizimlaridan foydalanish, Internetga ulanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va raqamli savodxonlik darajasini oshirish muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Xalqaro tajribalardan foydalanish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish orqali O'zbekiston o'zining elektron hukumat tizimini yanada takomillashtirish va global reytinglarda yuqoriroq o'rinlarni egallash imkoniyatiga ega. Umumiy holda, O'zbekiston elektron hukumat rivojlanishi sohasida erishgan yutuqlar mamlakatning zamonaviy raqamli davlat sari yo'lda muhim qadamlar qo'yganligini va bu jarayon kelajakda ham izchil davom ettirilishi zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston elektron hukumat sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu faqat texnologik taraqqiyot emas, balki davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan o'zgarganidan dalolatdir. Elektron hukumat – bu davlat xizmatlarini tezkor, shaffof va adolatli taqdim etish yo'lidagi bosqich, u orqali davlat boshqaruvi aholiga yaqinlashmoqda, uning ehtiyojlarini inobatga olmoqda.

My.gov.uz portali, raqamli xizmatlarning kengayishi, elektron imzo, mobil ilovalar orqali xizmatlar ko'lamining ortishi – bularning barchasi jamiyatning davlatga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Bugun millionlab fuqarolar bu xizmatlardan foydalanmoqda va bu orqali davlat xizmatlarining ochiqqligi, qulayligi va ishonchliligi ortmoqda. Statistik ko'rsatkichlardan ko'ra muhimrog'i – oddiy fuqarolarning hayotida sezilayotgan qulayliklardir.

BMT, Jahon banki, ITU, OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekistonning reytinglarda yuqorilashi mamlakatdagi raqamli transformatsiyaning jahon miqyosida e'tirof etilayotganini ko'rsatadi. Masalan, BMTning EGDI indeksida 87-o'rindan 63-o'ringa ko'tarilish yoki sun'iy intellektga tayyorlik bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi bo'lishi – bu raqamli siyosatning tizimli yondashuv bilan olib borilayotganidan dalolatdir.

Ayniqsa, ochiq ma'lumotlar bo'yicha yuksalish, raqamli imzo tizimining keng joriy etilishi, hujjat aylanishining 90% dan ortig'i elektron formatda amalga oshirilayotgani – bular ham davlatda zamonaviy boshqaruv tamoyillari amalga qo'llanilayotganini bildiradi. Shuningdek, internet tezligi, mobil aloqa sifati, keng polosali tarmoqning rivojlanishi fuqarolarning raqamli xizmatlardan keng foydalanishiga asos yaratmoqda.

Raqamli hukumat nafaqat xizmat ko'rsatadi, balki fuqaroni qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qiladi. Elektron ishtirok indeksining o'sib borayotgani jamiyatdagi faollik va davlatning bunga ochiqqligini anglatadi. Endi aholining fikri, taklifi va ishtiroki davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. UN E-Government Survey, report New York, 2022
2. UN E-Government Knowledgebase, 2024 manba: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>
3. Artificial Intelligence Index Report, 2024
4. <https://infocom.uz/en/news/ozbekiston-global-suniy-intellektga-tayyorgarlik-indeksida-17-pogona-yuqoriladi>
5. Government AI Readiness Index 2024
6. Artificial Intelligence Index Report, 2024
7. GovTech Maturity Index (GTMI), 2022 manba: <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/gtmi-Intro>
8. Speedtest Global Index, 2025 manba: <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan>
9. ICT Development Index, by Country 2025 manba: <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/ict-development-index-by-country>
10. [Inclusive Internet Index, 2020 manba: <https://composite-indicators.jrc.ec.europa.eu/explorer/indices/3i-index/inclusive-internet-index>
11. The Network Readiness Index (NRI), 2023 manba: <https://download.networkreadinessindex.org/reports/countries/2023/uzbekistan.pdf>